



## O'ZBEKISTONDA UY-JOY QURILISHINI RIVOJLANTIRISH METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI

*PhD Usmonov Mirumar*

*Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti*

*ORCID: 0009-0003-4474-452X*

*[mirumar1990@gmail.com](mailto:mirumar1990@gmail.com)*

**Annotatsiya.** Maqolada O'zbekistonda uy-joy qurilishini rivojlantirishning nazariy-metodologik asoslari tadqiq etilgan. Aholini arzon, xavfsiz va zamonaviy uy-joy bilan ta'minlash, davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarini takomillashtirish, innovatsion va energiya tejamkor texnologiyalarni joriy etish hamda hududiy qurilish klasterlarini shakllantirish masalalariga alohida e'tibor qaratilgan. Tadqiqotda uy-joy qurilishini rivojlantirishda iqtisodiy, ijtimoiy, institutsional, ekologik va raqamli modellarni o'z ichiga oluvchi kompleks yondashuv zarurligi asoslab berilgan. Shuningdek, uy-joy fondini boshqarish samaradorligini oshirish, qurilish sanoati korxonalarini diversifikatsiyalash va qo'shilgan qiymat zanjirini kengaytirish yo'nalishlari tahlil qilingan.

**Kalit so'zlar:** uy-joy qurilishi, metodologiya, davlat-xususiy sheriklik, qurilish klasteri, diversifikatsiya, energiya samaradorligi, BIM texnologiyalari, qo'shilgan qiymat.

## НАПРАВЛЕНИЯ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ МЕТОДОЛОГИИ РАЗВИТИЯ ЖИЛИЩНОГО СТРОИТЕЛЬСТВА В УЗБЕКИСТАНЕ

*PhD Усмонов Мирумар*

*Ташкентский государственный экономический университет*

**Аннотация.** В статье исследуются теоретико-методологические основы развития жилищного строительства в Узбекистане. Особое внимание уделено вопросам обеспечения населения доступным и современным жильем, совершенствования механизмов государственно-частного партнерства, внедрения инновационных и энергоэффективных технологий, а также формирования территориальных строительных кластеров. В работе обоснована необходимость комплексного подхода к развитию жилищного строительства, включающего экономические, социальные, институциональные, экологические и цифровые модели. Также рассмотрены направления повышения эффективности управления жилищным фондом, диверсификации строительной промышленности и расширения цепочки добавленной стоимости.

**Ключевые слова:** жилищное строительство, методология, государственно-частное партнерство, строительный кластер, диверсификация, энергоэффективность, BIM-технологии, добавленная стоимость.

## DIRECTIONS FOR IMPROVING THE METHODOLOGY OF HOUSING CONSTRUCTION DEVELOPMENT IN UZBEKISTAN

PhD *Usmonov Mirumar*

*Tashkent State University of Economics*

**Abstract.** *The article examines the theoretical and methodological foundations for the development of housing construction in Uzbekistan. Special attention is paid to providing the population with affordable, safe, and modern housing, improving public-private partnership mechanisms, introducing innovative and energy-efficient technologies, and forming regional construction clusters. The study substantiates the need for an integrated approach to housing construction development, including economic, social, institutional, environmental, and digital models. The article also analyzes ways to improve housing stock management, diversify construction industry enterprises, and expand the value-added chain.*

**Keywords:** *housing construction, methodology, public-private partnership, construction cluster, diversification, energy efficiency, BIM technologies, value added.*

### **Kirish.**

Bugungi kunda aholining munosib turmush sharoitini ta'minlash, urbanizatsiya jarayonlarini samarali boshqarish va hududiy infratuzilmani kompleks rivojlantirish masalalari uy-joy qurilishi sohasini davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylantirmoqda. Aholi sonining ortib borishi, shahar va qishloq hududlarida turar joyga bo'lgan ehtiyojning kuchayishi, uy-joy narxlarining aholi daromadlari bilan mutanosibligini ta'minlash zarurati mazkur yo'nalishda ilmiy asoslangan metodologik yondashuvlarni ishlab chiqishni talab etadi.

Uy-joy qurilishini rivojlantirish faqatgina yangi turar joy binolarini barpo etish bilan cheklanmaydi. Bu jarayon iqtisodiy, ijtimoiy, arxitekturaviy, ekologik, institutsional va raqamli boshqaruv omillarini o'zaro uyg'unlashtirishni talab qiladi. Shu nuqtayi nazardan, uy-joy qurilishini rivojlantirish metodologiyasi aholining turar joyga bo'lgan ehtiyojini qondirish, qurilish jarayonlarini samarali tashkil etish, qurilish materiallari sanoatini rivojlantirish, moliyalashtirish mexanizmlarini takomillashtirish hamda ekologik barqaror qurilish tamoyillarini joriy etishga xizmat qiluvchi ilmiy-amaliy tizim sifatida qaraladi.

Rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, aholini arzon uy-joy bilan ta'minlashda davlat-xususiy sheriklik mexanizmlari muhim o'rin tutadi. Xususan, Niderlandiya, Buyuk Britaniya va Irlandiya uy-joy qurilishida davlat-xususiy sheriklikni samarali qo'llagan davlatlar sifatida e'tirof etiladi (Eggers & Startup, 2006). Bu tajribalar O'zbekiston sharoitida ham uy-joy qurilishini moliyalashtirish, boshqarish va infratuzilmaviy ta'minotini yaxshilashda muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Mazkur maqolaning maqsadi O'zbekistonda uy-joy qurilishini rivojlantirish metodologiyasini takomillashtirish yo'nalishlarini ilmiy asoslash, uy-joy qurilishi modellari va shakllarini tizimlashtirish hamda qurilish klasterlari va diversifikatsiyalashuv asosida tarmoq samaradorligini oshirish bo'yicha takliflar ishlab chiqishdan iborat.

### **Adabiyotlar sharhi.**

Uy-joy qurilishini rivojlantirish, arzon uy-joy dasturlarini shakllantirish va davlat-xususiy sheriklik asosida uy-joy loyihalarini amalga oshirish masalalari ko'plab xorijiy tadqiqotchilar tomonidan o'rganilgan. W.D. Eggers va T. Startup o'z tadqiqotlarida infratuzilmaviy tafovutlarni kamaytirishda davlat-xususiy sheriklikning o'rnini alohida ta'kidlaydi. Ularning fikricha, yirik infratuzilma va uy-joy loyihalarida davlat va xususiy sektor manfaatlarini uyg'unlashtirish moliyaviy resurslardan samarali foydalanish hamda loyihalarning barqarorligini ta'minlash imkonini beradi (Eggers & Startup, 2006).

Yahaya Ahmed va Ibrahim Atan Bin Sipan tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda arzon uy-joy qurilishida davlat-xususiy sheriklikning muvaffaqiyat omillari tahlil qilingan. Mualliflar aholining daromad darajasi, ipoteka mexanizmlarining moslashuvchanligi, davlat kafolatlari, yer resurslaridan foydalanish tartibi va infratuzilmaviy ta'minot arzon uy-joy loyihalarining muvaffaqiyatida hal qiluvchi rol o'ynashini asoslab bergan (Yahaya & Sipan, 2019).

Mahalliy sharoitda uy-joy qurilishini rivojlantirish muammosi aholi sonining ortishi, urbanizatsiya jarayonlarining jadallashuvi, qurilish materiallari narxining o'zgaruvchanligi, uy-joy fondini boshqarish tizimidagi institutsional muammolar va zamonaviy boshqaruv mexanizmlarining yetarli darajada shakllanmaganligi bilan bevosita bog'liqdir. Shu sababli uy-joy qurilishi sohasida faqat qurilish hajmini oshirish emas, balki qurilish metodologiyasi, moliyalashtirish shakllari, hududiy rejalashtirish, qurilish sanoati klasterlari, innovatsion texnologiyalar va energiya samaradorligi masalalarini kompleks tadqiq etish zarur.

### Tadqiqot metodologiyasi.

Tadqiqot metodologiyasi uy-joy qurilishini rivojlantirish jarayoniga tizimli va kompleks yondashuv asosida shakllantirildi. Bunda uy-joy qurilishi iqtisodiy, ijtimoiy, institutsional, ekologik, hududiy va innovatsion omillar kesimida tahlil qilindi. Tadqiqot jarayonida uy-joy qurilishi jarayonining iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik jihatlarini o'zaro bog'liqlikda o'rganish uchun tizimli tahlil usulidan, xorijiy tajribalar va milliy amaliyotni solishtirish uchun taqqoslash usulidan, uy-joy qurilishini rivojlantirish modellari va shakllarini tizimlashtirish uchun guruhlash va tasniflash usulidan foydalanildi.

Davlat, xususiy sektor, aholi va boshqaruv tashkilotlari o'rtasidagi munosabatlarni baholashda institutsional tahlil usuli qo'llanildi. Qurilish sanoati korxonalari, ta'lim muassasalari, ilmiy-tadqiqot markazlari, banklar va xizmat ko'rsatuvchi tashkilotlar o'rtasidagi integratsion aloqalarni o'rganishda esa klaster yondashuvidan foydalanildi. Mazkur metodologik yondashuv uy-joy qurilishini rivojlantirishni faqat alohida qurilish loyihalari doirasida emas, balki kengroq iqtisodiy va hududiy rivojlanish tizimi sifatida tahlil qilish imkonini beradi.

### Tahlil va natijalar muhokamasi.

Uy-joy qurilishini rivojlantirish metodologiyasi iqtisodiy, ijtimoiy, arxitekturaviy va ekologik sohalarni birlashtirgan, ilmiy asoslangan, innovatsion va barqaror rivojlanishni ta'minlovchi tizim sifatida qaralishi lozim. Uning asosiy maqsadi aholi uchun qulay, xavfsiz, arzon va zamonaviy turar joy muhitini yaratishdan iborat.

Metodologiya muayyan sohada amalga oshiriladigan jarayonlarni ilmiy asosda tashkil etish, tahlil qilish va takomillashtirish usullari hamda tamoyillar tizimidir.

### 1-jadval


#### Uy-joy qurilishini rivojlantirish metodologiyasining asosiy tamoyillari

No	Tamoyil	Mazmuni
1	Ilmiy asoslanish	Qurilish siyosatini ma'lumot, tahlil va ilmiy xulosalar asosida shakllantirish
2	Integratsiyalashgan yondashuv	Iqtisodiy, ijtimoiy, arxitekturaviy va ekologik jihatlarini birgalikda ko'rib chiqish
3	Innovatsion rivojlanish	Yangi texnologiyalar va zamonaviy qurilish usullarini joriy etish
4	Barqarorlik va energiya tejamkorlik	Uy-joylarning uzoq muddatli iqtisodiy va ekologik samara berishini ta'minlash
5	Aholi ehtiyojlariga moslik	Turli aholi qatlamlari uchun mos turar joy yechimlarini ishlab chiqish

*Manba: muallif tomonidan tuzildi.*

Shu ma'noda, uy-joy qurilishini rivojlantirish metodologiyasi mamlakatda turar joylarni loyihalash, qurish, moliyalashtirish va boshqarish sohasidagi ilmiy yondashuvlar, modellar va amaliy usullar majmuasidir.

O'zbekistonda so'nggi yillarda uy-joy siyosati aholining turmush darajasini oshirish, shahar va qishloq infratuzilmasini yaxshilash hamda iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashga yo'naltirilgan. Uy-joy siyosatini yuritishning asosiy yo'nalishlari sifatida iqtisodiy jihatdan maqbul uy-joylar qurish, shaharsozlik rejalashtirishni zamonaviylashtirish, qurilish materiallari sanoatini rivojlantirish hamda ijtimoiy-ekologik barqarorlikni ta'minlashni ko'rsatish mumkin.



**1-rasm. Qurilish sanoati klasterlarining faoliyat ko'rsatish mexanizmi**

*Manba:* muallif tomonidan tuzildi.

Iqtisodiy jihatdan maqbul uy-joylar qurishda aholi daromadlariga mos dasturli uy-joy turlarini joriy etish, ipoteka tizimini takomillashtirish va subsidiya mexanizmlarini ijtimoiy mezonlar asosida yo'naltirish muhimdir. Shaharsozlik rejalashtirishni zamonaviylashtirish esa

yer resurslaridan samarali foydalanish, infratuzilmaviy yuklamalarni oldindan baholash va hududiy qurilish dasturlarini kompleks ishlab chiqishni talab etadi.

Iqtisodiy model uy-joy qurilishiga sarflanadigan mablag'lar, qurilish tannarxi, ipoteka tizimi, davlat subsidiyalari va aholi daromadlari o'rtasidagi bog'liqlikni baholashga xizmat qiladi. Mazkur model doirasida investitsiya samaradorligini baholashda NPV, IRR, Payback period kabi ko'rsatkichlardan foydalanish mumkin.


2-jadval

## Uy-joy qurilishini rivojlantirish modellari

No	Model turi	Asosiy vazifasi
1	Iqtisodiy model	Sarmoya, xarajat va samaradorlikni baholash
2	Hududiy model	Qurilishni hududlar bo'yicha rejalashtirish
3	Ijtimoiy model	Aholi ehtiyojlariga mos uy-joy turlarini aniqlash
4	Institutsional model	Davlat, xususiy sektor va aholi hamkorligini tashkil etish
5	Ekologik model	Barqaror va yashil qurilishni ta'minlash
6	BIM / axborot modeli	Qurilish jarayonlarini raqamli boshqarish
7	Innovatsion model	Yangi texnologiyalarni joriy etish

*Manba:* muallif tomonidan umumlashtirildi.

Hududiy model esa aholining joylashuvi, demografik o'sish, migratsiya oqimlari va infratuzilmaviy ta'minot darajasini hisobga olgan holda uy-joy qurilishini hududlar kesimida rejalashtirish imkonini beradi. Bu model shahar va qishloq hududlarida qurilish uchun yer maydonlarini optimal taqsimlash, yo'l, suv, elektr, gaz, maktab va shifoxona kabi infratuzilma obyektlari bilan uy-joy qurilishining mutanosibligini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.




2-rasm. Qurilish sanoati klasteri faoliyatiga ta'sir etuvchi omillar

*Manba:* muallif tomonidan tuzildi.

Ijtimoiy model aholining turli qatlamlari ehtiyojlarini hisobga oladi. Bunda kam ta'minlangan aholi, yosh oilalar, o'rta daromadli qatlam va bozor segmentiga yo'naltirilgan uy-joy turlari alohida tahlil qilinadi. Institutsional model davlat, xususiy sektor, banklar, qurilish kompaniyalari va aholining o'zaro hamkorligini samarali tashkil etishga xizmat qiladi.

Ekologik va energiya samaradorligi modeli yashil qurilish standartlarini joriy etish, qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish va qurilish chiqindilarini qayta ishlash tizimini rivojlantirishga yo'naltiriladi. BIM modeli esa loyihalash, qurilish va ekspluatatsiya bosqichlaridagi ma'lumotlarni yagona raqamli platformada boshqarish imkonini yaratadi.



**3-rasm. Qurilish sanoatida hududiy klasterini shakllantirish algoritmi**

*Manba: muallif tomonidan tuzildi.*

## Uy-joy qurilishini rivojlantirish shakllari

Shakl turi	Maqsadi
Tashkiliy	Qurilish jarayonini amalga oshirish va boshqarish usulini belgilash
Moliyaviy	Qurilishni moliyalashtirish manbalarini shakllantirish
Huquqiy	Qurilish munosabatlarini tartibga solish
Arxitekturaviy	Binolarning me'moriy turi va texnologiyasini tanlash
Ijtimoiy	Aholi ehtiyojlariga mos uy-joylar yaratish
Innovatsion	Zamonaviy texnologiyalar va "aqlli" qurilish tizimlarini joriy etish

*Manba: muallif tomonidan tuzildi.*

Tashkiliy boshqaruv shakllari davlat buyurtmasi, xususiy sektor tashabbusi, davlat-xususiy sheriklik va kooperativ boshqaruv shakllarini o'z ichiga oladi. Moliyaviy shakllar esa davlat byudjeti, ipoteka kreditlash, xususiy investitsiyalar, aralash moliyalashtirish va kooperativ mablag'lar asosidagi uy-joy qurilishini qamrab oladi.


Huquqiy shakllar qurilish munosabatlarini qonunchilik, shartnoma, ijtimoiy ijara va developerlik munosabatlari asosida tartibga solishga xizmat qiladi. Arxitekturaviy va texnologik shakllar individual uylar, ko'p qavatli turar joylar, modulli qurilish va aralash turdagi komplekslarni o'z ichiga oladi. Innovatsion shakllar esa 3D-printer asosida uy qurish, "Smart home" tizimlari, ekologik barqaror komplekslar va BIM asosidagi raqamli loyiha boshqaruvini qamrab oladi.

So'nggi yillarda uy-joy fondini boshqaruvchi tashkilotlar faoliyatida qator muammolar ko'zga tashlanmoqda. Jumladan, boshqaruvchi tashkilotlar va xususiy uy-joy mulkdorlari shirkatlarining debitorlik va kreditorlik qarzlari ortib borishi, boshqaruv faoliyatida malakali mutaxassislarining yetishmasligi, uy-joy mulkdorlarining "birgalikda boshqarish" funksiyasida yetarli darajada ishtirok etmasligi kabi holatlar soha samaradorligiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Uy-joy fondini boshqarish tizimi aholining ijtimoiy-iqtisodiy muammolari bilan bevosita bog'liq. Shu bois mazkur tizimni takomillashtirishda faqat texnik xizmat ko'rsatish emas, balki aholining mulkiy madaniyatini oshirish, boshqaruvchi tashkilotlarning institutsional salohiyatini kuchaytirish, shaffof hisob-kitob tizimlarini joriy etish va raqamli boshqaruv platformalaridan foydalanish zarur.

Qurilish klasterlarini tashkil etish hududiy iqtisodiy rivojlanish nuqtayi nazaridan muhim hisoblanadi. Klaster tizimi muayyan hududda joylashgan yirik, o'rta va kichik korxonalarni yagona ishlab chiqarish-iqtisodiy makonga birlashtirib, ular o'rtasida kooperatsion munosabatlarni mustahkamlaydi. Natijada mahalliy xomashyo resurslaridan samarali foydalanish, ishlab chiqarishni mahalliyashtirish darajasini oshirish, yangi ish o'rinlari yaratish va hududning investitsiyaviy jozibadorligini kuchaytirish imkoniyatlari kengayadi.

Qurilish klasterining asosiy tarkibiy qismi ishlab chiqaruvchilar, loyihalash va qurilish korxonalari hamda savdo tarmoqlaridan iborat bo'lib, ularning samarali faoliyati davlat organlari, banklar, oliy ta'lim muassasalari, ilmiy-tadqiqot markazlari, logistika tizimi, qurilish materiallari yetkazib beruvchilar va xizmat ko'rsatuvchi tashkilotlar bilan uzviy hamkorlikda amalga oshiriladi.



**4-rasm. Qurilish sanoati hududiy klasteri ishtirokchilari o'zaro ta'sir mexanizmining tarkibiy tuzilishi**

*Manba: muallif tomonidan tuzildi.*

Qurilish sanoati korxonalarining diversifikatsiyalashuvi esa qo'shilgan qiymat zanjirining kengayishi va chuqurlashuviga xizmat qiladi. Diversifikatsiya jarayonida korxonalar faqat bir turdagi mahsulot ishlab chiqarish bilan cheklanib qolmay, balki xomashyoni qayta ishlash, yarim tayyor mahsulotlar tayyorlash, tayyor qurilish materiallari ishlab chiqarish, montaj ishlari, servis va logistika xizmatlarini ham qamrab oladi. Bu esa ishlab chiqarishning har bir bosqichida yangi qiymat yaratilishiga olib keladi.

Diversifikatsiya korxonalarining moliyaviy barqarorligini mustahkamlaydi, bozor konyunkturasidagi o'zgarishlarga moslashuvchanligini oshiradi va raqobatbardoshligini kuchaytiradi. Ayniqsa, uy-joy qurilishi sohasida qurilish materiallari sanoati, loyiha tashkilotlari, moliyaviy institutlar, logistika va servis xizmatlarining integratsiyalashuvi qurilish jarayonining tannarxini kamaytirish, muddatlarni qisqartirish va sifatni oshirish imkonini beradi.

### **Xulosa va takliflar.**

O'zbekistonda uy-joy qurilishini rivojlantirish metodologiyasini takomillashtirish aholining munosib turar joyga bo'lgan ehtiyojini qondirish, shahar va qishloq infratuzilmasini kompleks rivojlantirish, qurilish sanoati korxonalarining iqtisodiy samaradorligini oshirish hamda ekologik barqarorlikni ta'minlashda muhim ahamiyatga ega. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, uy-joy qurilishini rivojlantirish metodologiyasi iqtisodiy, ijtimoiy, institutsional, ekologik, hududiy va raqamli omillarni o'zaro uyg'unlashtirgan kompleks tizim sifatida qaralishi lozim. Shu bilan birga, davlat-xususiy sheriklik mexanizmlaridan samarali foydalanish arzon uy-joy qurilishini kengaytirish, xususiy investitsiyalarni jalb etish va infratuzilmaviy xarajatlarni optimallashtirish imkonini beradi.

Uy-joy qurilishida iqtisodiy, hududiy, ijtimoiy, institutsional, ekologik, BIM va innovatsion modellarni birgalikda qo'llash qurilish jarayonini ilmiy asosda rejalashtirish va boshqarish imkoniyatini yaratadi. Shuningdek, uy-joy fondini boshqarish tizimini takomillashtirish uchun boshqaruvchi tashkilotlar faoliyatini raqamlashtirish, malakali mutaxassislar tayyorlash, uy-joy mulkdorlarining boshqaruvdagi ishtirokini kuchaytirish va moliyaviy intizomni mustahkamlash zarur. Qurilish klasterlarini shakllantirish va qurilish sanoati korxonalarini diversifikatsiyalash esa qo'shilgan qiymat zanjirini kengaytiradi, hududiy iqtisodiy rivojlanishni jadallashtiradi hamda tarmoqning raqobatbardoshligini oshiradi. Shu asosda uy-joy qurilishi loyihalarida davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarini kengaytirish va ularni hududiy dasturlar bilan uyg'unlashtirish, qurilish jarayonlarida BIM texnologiyalarini bosqichma-bosqich joriy etish orqali loyiha, qurilish va ekspluatatsiya bosqichlari o'rtasidagi uzviylikni kuchaytirish, energiya tejankor va ekologik barqaror uy-joylar qurilishini rag'batlantirish uchun imtiyozli kredit, subsidiya va soliq yengilliklari tizimini takomillashtirish maqsadga muvofiqdir.

Bundan tashqari, hududiy qurilish klasterlarini shakllantirishda mahalliy xomashyo, ilmiy-tadqiqot salohiyati, ta'lim muassasalari va moliyaviy institutlar o'rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish, uy-joy fondini boshqarishda esa shaffof hisob-kitob, raqamli monitoring va mulkdorlarning faol ishtirokiga asoslangan boshqaruv mexanizmini joriy etish zarur. Umuman olganda, uy-joy qurilishini rivojlantirish metodologiyasini takomillashtirish O'zbekistonda aholi farovonligini oshirish, qurilish sanoatini modernizatsiya qilish, hududiy iqtisodiy rivojlanishni jadallashtirish va ekologik barqaror shaharsozlik siyosatini shakllantirishning muhim strategik yo'nalishi hisoblanadi.

### **Adabiyotlar/Литература / Reference:**

*Eastman, C., Teicholz, P., Sacks, R. and Liston, K. (2008) BIM Handbook: A Guide to Building Information Modeling for Owners, Managers, Designers, Engineers, and Contractors. Hoboken, NJ: John Wiley & Sons.*

*Eggers, W.D. and Startup, T. (2006) Closing Infrastructure Gap: Role of Public-Private Partnerships. London: Deloitte Research, pp. 4-6.*

Hassan, G.F. (2011) 'The enabling approach for housing supply: Drawbacks and prerequisites - Egyptian experiences', *Alexandria Engineering Journal*.

Kibert, C.J. (2016). *Sustainable Construction: Green Building Design and Delivery*. 4th edn. Hoboken, NJ: John Wiley & Sons.

Moreno-Monroy, A., Schiavina, M., and Veneri, P. (2020). *Housing Policies for Sustainable and Inclusive Cities: How National Governments Can Deliver Affordable Housing and Compact Urban Development*. Coalition for Urban Transitions.

Nallari, R. and Griffith, B. (2013) *Clusters of Competitiveness*. Washington, D.C.: World Bank Publications.

Porter, M.E. (1998) 'Clusters and the new economics of competition', *Harvard Business Review*, November-December.

UN-Habitat (n.d.) *Policy Guide for Housing*. United Nations Human Settlements Programme, Quick Policy Guides Series.

Usmanov, M.A. (2025) 'O'zbekistonda uy-joy qurilishini rivojlanishi tahlili', *Marketing Journal*, (9).

Yahaya Ahmed and Ibrahim Atan Bin Sipan (2019) 'Critical success factors of public-private partnership for affordable housing in Nigeria', *International Journal of Recent Technology and Engineering*, 8(2S9), September.